



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLOVCHI HARBIY XIZMATCHILAR SHAXSIYATINING KO'P OMILLI TUZILMASI VA AXLOQIY-IRODAVIY SIFATLAR DETERMINATSIYASI

Zohirov Nodirbek Ulug'bekovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, katta o'qituvchi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlovchi harbiy xizmatchilar (n=441) shaxsiyatining ko'p omilli tuzilmasi, motivatsion strategiyalari va tavakkalchilikka tayyorlik darajasi tizimli-empirik jihatdan tadqiq etilgan. Izlanishda R.B. Kettell (16PF), T. Elers hamda Shubert metodikalaridan foydalanilgan. Matematik-statistik tahlil (Z-kriteriyi) barcha shkalalar bo'yicha taqsimotning normal emasligini (0,01) va yuqori shaxslararo dispersiyani aniqladi. Rezultatlar respondentlar shaxsida "Ijtimoiy yetuklik-onglilik" (M=6,44), "Mustaqillik" (M=6,20) va "O'zini nazorat qilish" (M=6,16) kabi regulativ yadroning, shuningdek, yuqori darajadagi "Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi" (M=26,46) ustuvorligini ko'rsatdi. Shubert testi bo'yicha "Tavakkalchilikka tayyorlik" (M=9,78) o'rtacha qiymatga ega bo'lsa-da, standart og'ishning keskin yuqoriligi ($\sigma=11,61$) guruh ichida riskka munosabat bo'yicha keskin qutblanish (differensiallik) mavjudligini isbotladi. Olingan natijalar asosida kadrlar seleksiyasini raqamlashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jamoat xavfsizligi, Kettell 16PF, muvaffaqiyat motivatsiyasi, mag'lubiyatdan qochish, tavakkalchilikka tayyorlik, ijtimoiy yetuklik, o'zini nazorat qilish, standart og'ish, differensial psixologiya.

МНОГОФАКТОРНАЯ СТРУКТУРА ЛИЧНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ ОБЩЕСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ, И ДЕТЕРМИНАЦИЯ ИХ МОРАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ

Зохиров Нодирбек Улугбекович

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, старший преподаватель,
независимый исследователь

Аннотация

В данной статье на основе системно-эмпирического подхода исследованы многофакторная структура личности военнослужащих, обеспечивающих общественную безопасность (n=441), их мотивационные стратегии и уровень готовности к риску. В исследовании использовались личностный опросник Р.Б. Кеттелла (16PF), методика мотивации достижения Т. Эллера и тест готовности к риску Шуберта. Результаты математико-статистического анализа (Z-критерий) показали ненормальное распределение по всем шкалам ($p<0,01$) и высокий уровень межличностной вариативности. Полученные данные свидетельствуют о преобладании у респондентов таких регулятивных качеств, как «социальная зрелость и сознательность» (M=6,44), «самостоятельность» (M=6,20) и «самоконтроль» (M=6,16). Кроме того, выявлен высокий уровень мотивации достижения успеха (M=26,46). По результатам теста Шуберта показатель готовности к риску оказался на среднем уровне (M=9,78), однако высокий уровень стандартного отклонения ($\sigma=11,61$) свидетельствует о значительной дифференциации отношения к риску внутри группы. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по цифровизации процессов отбора и оценки военнослужащих, обеспечивающих общественную безопасность.

Ключевые слова: общественная безопасность, 16PF Кеттелла, мотивация достижения успеха, избегание неудачи, готовность к риску, социальная зрелость, самоконтроль, стандартное отклонение, дифференциальная психология.

THE MULTIFACTOR STRUCTURE OF THE PERSONALITY OF MILITARY PERSONNEL ENSURING PUBLIC SECURITY AND THE DETERMINATION OF THEIR MORAL AND VOLITIONAL QUALITIES

Zohirov Nodirbek Ulug'bekovich

University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Senior Lecturer, Independent Researcher

Abstract

This article presents a systematic and empirical study of the multifactor personality structure,

motivational strategies, and risk readiness of military personnel responsible for ensuring public security (n=441). The research employed R.B. Cattell's 16PF Personality Questionnaire, T. Ehlers' Achievement Motivation Scale, and Schubert's Risk Readiness Test. Mathematical and statistical analysis (Z-criterion) revealed non-normal distributions across all scales ($p < 0.01$) and a high degree of interpersonal variability. The findings indicate the predominance of regulatory traits such as "social maturity and conscientiousness" ($M=6.44$), "independence" ($M=6.20$), and "self-control" ($M=6.16$). In addition, a high level of achievement motivation ($M=26.46$) was identified among the respondents. According to Schubert's test, the average level of risk readiness was moderate ($M=9.78$); however, the high standard deviation ($\sigma=11.61$) demonstrates significant differentiation in attitudes toward risk within the group. Based on the findings, practical recommendations for the digitalization of personnel selection and assessment processes in public security institutions are proposed.

Keywords: public security, Cattell 16PF, achievement motivation, avoidance of failure, risk readiness, social maturity, self-control, standard deviation, differential psychology.

KIRISH

Bugungi globallashuv, murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, axborot xurujlari hamda turli xavfsizlik tahdidlarining kuchayib borayotgan sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi davlat va jamiyat barqarorligining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali harakat qilish, turli nizoli holatlarning oldini olish kabi vazifalar bevosita harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy fazilatlarini hamda axloqiy-irodaviy sifatlarini bilan chambarchas bog'liqdir. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi harbiy xizmatchi shaxsiyati ko'p omilli, murakkab va dinamik tuzilishga ega bo'lib, u kasbiy bilim, jismoniy tayyorgarlik, psixologik barqarorlik, huquqiy ong, ijtimoiy mas'uliyat, kommunikativ madaniyat hamda axloqiy-irodaviy sifatlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Bunday shaxsiy tuzilma harbiy xizmatchining xizmat faoliyatida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarga moslashishi, qonuniylik va insonparvarlik tamoyillariga rioya qilishi, fuqarolar bilan muloqotda vazminlik, adolat va mas'uliyatni namoyon etishi uchun zarur psixologik-pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida harbiy xizmatchining axloqiy-irodaviy sifatlarini alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur faoliyat turi yuqori darajadagi intizom, burchga sadoqat, jasorat, chidamlilik, qat'iyat, o'zini tuta bilish, stressga bardoshlilik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini talab etadi. Harbiy xizmatchining murakkab ijtimoiy vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlashi, qonuniy harakat qilishi, xizmat vazifasini vijdonan bajarishi hamda jamoat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'ya olishi uning axloqiy-irodaviy yetukligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, harbiy xizmatchi shaxsiyatining ko'p omilli tuzilmasini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Mazkur yondashuv harbiy xizmatchilarning kasbiy shakllanish jarayonida qaysi omillar ustuvor ahamiyatga ega ekanini aniqlash, axloqiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini belgilash hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bunda shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, xizmat motivatsiyasi, kasbiy qadriyatlarini, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya jarayoni va xizmat faoliyati sharoitlari muhim determinantlar sifatida qaraladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy xavfsizlik tizimida harbiy xizmatchidan faqat jismoniy tayyorgarlik yoki kasbiy ko'nikmalar emas, balki yuksak axloqiy madaniyat, irodaviy barqarorlik, kommunikativ kompetentlik va ijtimoiy mas'uliyat ham talab etiladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlarini tizimli tahlil qilish ularning kasbiy faoliyatga tayyorligini chuqurroq baholash, xizmat jarayonida yuzaga keladigan psixologik zo'riqlashlarning oldini olish va samarali tarbiyaviy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlovchi harbiy xizmatchilar shaxsiyatining ko'p omilli tuzilmasi, uning tarkibiy komponentlari hamda axloqiy-irodaviy sifatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy determinantlar ijtimoiy-psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Jamoat xavfsizligi organlari xizmatchilarining faoliyati yuqori darajada tartibga solinganligi (**reglamentlanganligi**), ijtimoiy mas'uliyatning yuqoriligi, dinamik o'zgaruvchan sharoitlarda qaror qabul qilish zarurati hamda **inqirozli** vaziyatlarda yuqori psixofizik yuklamalar bilan xarakterlanadi. Bunday murakkab determinatsiya sharoitida harbiy xizmatchining kasbiy yaroqliligi va samaradorligi shaxsning chuqur fundamental omillari, uning motivatsion tendensiyalari hamda noaniqlik sharoitida tavakkal qilishga bo'lgan psixologik tayyorligi bilan belgilanadi.

2.1.3-jadval

Shaxsni o'rganishning ko'p omilli so'rovnomasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat (M)	Std.og'ish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Muloqotga moyillik	5,37	2,10	2,746	0,000**
Hissiy barqarorlik-beqarorlik	5,19	2,11	2,576	0,000**
Hukmronlikka intilish-tobelik	5,60	1,80	2,291	0,000**
Ijtimoiy yetuklik-onglililik	6,44	2,28	4,084	0,000**
Ijtimoiy mardlik	5,62	1,98	2,845	0,000**
Ishonuvchanlik-shubhanalish	5,49	2,00	2,876	0,000**
O'ziga ishonch-ishonmaslik	5,41	1,87	2,416	0,000**
Mustaqillik-tobelik	6,20	2,90	3,096	0,000**
O'zini nazorat qilish	6,16	2,12	2,298	0,000**
Qo'zg'aluvchanlik	4,70	2,11	2,198	0,000**

Izoh: ** $p \leq 0,01$

Shaxsni o'rganishning ko'p omilli so'rovnomasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko'ra, muloqotga moyillik (5,37), hissiy barqarorlik-beqarorlik (5,19), hukmronlikka intilish-tobelik (5,60), ijtimoiy yetuklik-onglililik (6,44), ijtimoiy mardlik (5,62), ishonuvchanlik-shubhanalish (5,49), o'ziga ishonch-ishonmaslik (5,41), mustaqillik-tobelik (6,20), o'zini nazorat qilish (6,16), qo'zg'aluvchanlik (4,70), ko'p omilli shaxs so'rovnomasi bo'yicha olingan o'rtacha qiymatlar tahlili respondentlarning **shaxsiylik** tuzilmasida ijtimoiy-irodaviy va regulyativ komponentlar ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Ko'rsatkichlar ierarxiyasida eng yuqori qiymat ijtimoiy yetuklik-onglililik (6,44) shkalasiga to'g'ri keladi. Bu holat shaxsning ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarini ongli ravishda qabul qilishi, xulq-atvorni refleksiv boshqarishi hamda ijtimoiy mas'uliyatni anglash darajasi yuqori ekanligini bildiradi. Mazkur sifat harbiy-professional faoliyatda normativlik va intizomiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Keyingi yuqori ko'rsatkichlar mustaqillik-tobelik (6,20) va o'zini nazorat qilish (6,16) shkalalarida qayd etilgan. Bu natijalar respondentlarning ichki regulyatsiya mexanizmlari rivojlanganligini, ya'ni xulq-atvorni mustaqil boshqarish, impulsni nazorat qilish hamda vaziyatga mos ravishda adekvat **reaksiya** bildirish qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ushbu ikki komponent irodaviy sifatlar tizimining markaziy yadrosini tashkil etib, shaxsning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Ijtimoiy mardlik (5,62) va hukmronlikka intilish-tobelik (5,60) ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori darajada bo'lishi respondentlarda faol ijtimoiy pozitsiya, tashabbusni ilgari surish, jamoada yetakchilikka moyillik va ijtimoiy ta'sir o'tkazish tendensiyasining mavjudligini bildiradi. Bu sifatlar ayniqsa jamoaviy faoliyat samaradorligini oshirishda va rahbarlik funksiyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishonuvchanlik-shubhanalish (5,49), o'ziga ishonch-ishonmaslik (5,41) hamda muloqotga moyillik (5,37) ko'rsatkichlari o'rta darajada ifodalangan bo'lib, respondentlarda ijtimoiy **interaksiya** va shaxslararo munosabatlar tizimi muvozanatli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, ular ijtimoiy aloqalarga ochiq bo'lsa-da, ortiqcha ishonuvchanlik yoki yopiq pozitsiyaga moyillik kuzatilmaydi. Bu esa adekvat ijtimoiy moslashuv va kommunikativ kompetensiyaning yetarli darajada shakllanganligini bildiradi. Hissiy barqarorlik-beqarorlik (5,19) ko'rsatkichi respondentlarda emotsional regulyatsiya tizimi nisbatan muvozanatlashganligini anglatadi. Bu natija shaxslarning stressli vaziyatlarda o'zini tutish, emotsional reaksiyalarni boshqarish va psixologik moslashuvchanlik darajasining yetarli ekanligini ko'rsatadi.

Eng past o'rtacha qiymat **qo'zg'aluvchanlik** (4,70) shkalasida kuzatilgan. Bu holat respondentlarda impulsivlik va affektiv **reaksiyalarning** nisbatan past darajada ekanligini, ya'ni emotsional tormozlanish va vaziyatni ongli nazorat qilish mexanizmlari ustun ekanligini bildiradi. Mazkur sifat harbiy-professional faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ekstremal vaziyatlarda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Shaxs tuzilmasida ijtimoiy yetuklik, mustaqillik va o'zini nazorat qilish komponentlari yetakchi o'rinni egallaydi. Bu esa respondentlarning psixologik portretida ongli regulyatsiya, ijtimoiy mas'uliyat va irodaviy barqarorlikning ustuvorligini aks ettiradi. Shu bilan birga, qo'zg'aluvchanlikning past darajada namoyon bo'lishi emotsional barqarorlikni ta'minlovchi qo'shimcha omil sifatida baholanadi.

Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi natijalarining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish shuni ko'rsatadiki, muloqotga moyillik ($Z=2,746$; $p<0,01$), hissiy barqarorlik-beqarorlik ($Z=2,576$; $p<0,01$), hukmronlikka intilish-tobelik ($Z=2,291$; $p<0,01$), ijtimoiy yetuklik-onglilik ($Z=4,084$; $p<0,01$), ijtimoiy mardlik ($Z=2,845$; $p<0,01$), ishonuvchanlik-shubhalanish ($Z=2,876$; $p<0,01$), o'ziga ishonch-ishonmaslik ($Z=2,416$; $p<0,01$), mustaqillik-tobelik ($Z=3,096$; $p<0,01$), o'zini nazorat qilish ($Z=2,298$; $p<0,01$) hamda qo'zg'aluvchanlik ($Z=2,198$; $p<0,01$) shkalalari bo'yicha taqsimot simmetrik emas, balki sezilarli darajada og'gan holda namoyon bo'lgan. Ayniqsa, ijtimoiy yetuklik-onglilik ($Z=4,084$) ko'rsatkichining nisbatan yuqoriligi ushbu sifat bo'yicha respondentlar o'rtasida sezilarli differensial mavjudligini anglatadi. Bu holat ijtimoiy ong, mas'uliyat va normativ xulq-atvor darajasi shaxslar kesimida bir xil emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, mustaqillik-tobelik ($Z=3,096$) va ishonuvchanlik-shubhalanish ($Z=2,876$) shkalalarida ham sezilarli og'ishlar kuzatilgan bo'lib, bu respondentlarning ijtimoiy qaror qabul qilish, boshqalarga ishonch bildirish hamda o'z pozitsiyasini himoya qilish darajasi turlicha ekanligini anglatadi. Muloqotga moyillik ($Z=2,746$) va ijtimoiy mardlik ($Z=2,845$) ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlangan natijalar esa shaxslararo **interaksiya** va ijtimoiy faollik darajasida ham bir xil emaslik mavjudligini tasdiqlaydi. Nisbatan pastroq qiymatlarga ega bo'lgan qo'zg'aluvchanlik ($Z=2,198$) va o'zini nazorat qilish ($Z=2,298$) shkalalarida ham ahamiyatlilik saqlanib qolgan. Bu esa emotsional regulyatsiya va impulsivlik darajasi bo'yicha ham respondentlar o'rtasida sezilarli individual tafovutlar mavjudligini bildiradi. Mazkur natijalar harbiy-professional faoliyatning selektiv va differensial ta'siri bilan izohlanadi. Xizmat jarayonida **shaxsiylik** sifatleri yagona model asosida emas, balki individual tajriba, xizmat muddati, lavozim, ijtimoiy muhit va psixologik xususiyatlar ta'sirida turlicha shakllanadi. Shu sababli, shaxsiy sifatlar taqsimoti normal emas, balki ko'p qirrali va og'ishgan xarakter kasb etadi.

2.1.4-jadval

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat (M)	Std.og'ish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	26,46	4,95	2,369	0,000**

Izoh: ** $p \leq 0,01$

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko'ra, Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi (26,46), Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi bo'yicha aniqlangan o'rtacha qiymat (26,46) respondentlarda mazkur motivatsion komponentning yetarli darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich shaxsning maqsadga yo'naltirilganligi, natijaga intilishi hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ichki psixologik resurslarining rivojlanganligini ifodalaydi. Mazkur darajadagi motivatsiya shaxsning vazifalarni bajarishda tashabbus ko'rsatishi, murakkab sharoitlarda faoliyatni davom ettirishi va muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan barqaror intilishini aks ettiradi. Ayniqsa, harbiy-professional faoliyat kontekstida bu ko'rsatkich mas'uliyatni anglash, xizmat vazifalarini sifatli bajarishga yo'naltirilgan ichki ehtiyoj hamda yuqori natijalarga erishishga qaratilgan psixologik tayyorgarlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ($Z=2,369$; $p<0,01$) o'zgaruvchi bo'yicha taqsimotning statistik jihatdan ahamiyatli darajada normal emasligini bildiradi. Ya'ni, respondentlar orasida muvaffaqiyatga yo'naltirilgan motivatsiya bir xil darajada emas, balki differensial tarzda — ayrimlarda yuqori, boshqalarida nisbatan past darajada namoyon bo'lgan. Boshqacha aytganda, muvaffaqiyatga intilish darajasi individual tajriba, xizmat muddati, shaxsiy qadriyatlar tizimi va kasbiy ijtimoiylashuv omillari ta'sirida turlicha shakllangan. Bu esa respondentlar orasida motivatsion resurslarning teng taqsimlanmaganligini anglatadi.

2.1.5-jadval

Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat (M)	Std.og'ish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash	14,63	3,37	3,261	0,000**

Izoh: ** $p \leq 0,01$

Magʻlubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga koʻra, respondentlarda mazkur psixologik koʻrsatkichning oʻrtacha qiymati 14,63 ni, standart ogʻishi esa 3,37 ni tashkil etgan. Ushbu natija tanlanmada magʻlubiyatdan qochishga yoʻnaltirilgan motivatsion tendensiyalar oʻrtacha darajada namoyon boʻlayotganligini anglatadi. Standart ogʻish koʻrsatkichining nisbatan past darajada qayd etilishi esa sinaluvchilar javoblarining keskin tafovutlarga ega emasligini, yaʼni guruh ichidagi motivatsion koʻrsatkichlar maʼlum darajada bir-biriga yaqin ekanligini ifodalaydi. Bu holat tanlanma tarkibida magʻlubiyatdan qochish motivatsiyasining barqaror va muayyan tizimli xarakter kasb etayotganini koʻrsatadi.

Normal taqsimlanishga moslikni tekshirish maqsadida olingan statistik natijalarga koʻra, ($Z=3,261$; $p\leq 0,01$) qiymatlarining aniqlanishi mazkur koʻrsatkichlarning normal taqsimot qonuniyatiga mos kelmasligini bildiradi. Magʻlubiyatdan qochish motivatsiyasi shaxsning muvaffaqiyatsizlik, tanqid, ijtimoiy rad etilish yoki salbiy baholanish ehtimoliga nisbatan ehtiyotkor munosabatini aks ettiruvchi motivatsion konstrukt sifatida talqin qilinadi. Olingan natijalar tanlanmada ayrim respondentlar faoliyat natijasidan koʻra muvaffaqiyatsizlik ehtimolini kamaytirishga koʻproq yoʻnaltirilganligini anglatadi. Bu esa ularda xavotirlanish, ichki psixologik zoʻriqish, qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik hamda riskdan qochishga moyillik kabi xususiyatlarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin.

2.1.6-jadval

Tavakkalchilikka moyillik darajasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=441)

Koʻrsatkichlar	Oʻrtacha qiymat (M)	Std.ogʻish (σ)	Z	p (ishonchlilik darajasi)
Tavakkalchilikka tayyorlik darajasini aniqlash	9,78	11,61	3,143	0,000**

Izoh: ** $p\leq 0,01$

Tavakkalchilikka moyillik darajasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari tahliliga koʻra, respondentlarda tavakkalchilikka tayyorlik koʻrsatkichining oʻrtacha qiymati 9,78 ni, standart ogʻishi esa 11,61 ni tashkil etgan. Mazkur natijalar sinaluvchilarda tavakkalchilikka moyillikning umumiy darajasi nisbatan oʻrtacha holatda namoyon boʻlayotganini koʻrsatsa-da, standart ogʻish qiymatining yuqori ekanligi tanlanma ichida individual tafovutlarning sezilarli darajada kuchli ekanligini anglatadi. Yaʼni, respondentlarning bir qismi tavakkalchilikka yuqori darajada moyillik bildirgan boʻlsa, boshqa qismida ehtiyotkorlik va xavfdan qochishga yoʻnaltirilgan tendensiyalar ustunligi kuzatilgan.

Tavakkalchilikka tayyorlik shaxsning noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish, yangi vaziyatlarga moslashish, kutilmagan oqibatlarni qabul qilish hamda maʼlum darajadagi xavfni ongli ravishda qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, dispersiyaning yuqori darajada qayd etilishi respondentlar orasida tavakkalchilikka nisbatan motivatsion va emotsional munosabatlarning turlicha shakllanganligini koʻrsatadi. Ayrim respondentlarda qatʼiyatlilik, tashabbuskorlik va faol strategiyalar ustun boʻlsa, boshqalarida xavfsizlikka intilish, barqarorlikni afzal koʻrish hamda ehtiyotkorlikka asoslangan xulq-atvor yetakchi psixologik tendensiya sifatida namoyon boʻlishi mumkin.

Normal taqsimotga moslikni aniqlash natijalariga koʻra ($Z = 3,143$; $p \leq 0,01$), mazkur koʻrsatkichlarning normal taqsimot qonuniyatiga mos kelmasligi tasdiqlandi. Statistik ahamiyatlilikning yuqori darajada qayd etilishi respondentlar javoblarining notekis taqsimlanganini, yaʼni tavakkalchilikka tayyorlik darajasi boʻyicha tanlanmada keskin farqlanuvchi guruhlar mavjudligini anglatadi. Bu holat ayrim sinaluvchilarda tavakkalchilikka haddan tashqari moyillik, boshqalarida esa tavakkaldan qochishga yoʻnaltirilgan himoyaviy strategiyalar shakllangan boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi.

Jamoat xavfsizligini taʼminlovchi harbiy xizmatchilar va serjantlar tarkibining (n = 441) koʻp omilli shaxs xususiyatlari, motivatsion yoʻnalganligi hamda tavakkalchilikka tayyorlik darajasini oʻrganishga qaratilgan tizimli empirik tadqiqot natijalari quyidagi fundamental ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

R.B. Kettell soʻrovnomasi boʻyicha olingan koʻrsatkichlar ierarxiyasida eng yuqori oʻrinni “Ijtimoiy yetuklik–onglilik” (M = 6,44), “Mustaqillik–tobelik” (M = 6,20) va “Oʻzini nazorat qilish” (M = 6,16) shkalalari egalladi. Bu holat jamoat xavfsizligi xodimlarining psixologik portretida kuchli ijtimoiy-regulyativ yadroning mavjudligini anglatadi. Respondentlar harbiy intizom va ijtimoiy meʼyorlarni ongli ravishda qabul qilgan, oʻz impulsini qatʼiy nazorat qila oladigan hamda refleksiv

boshqaruv tizimiga ega shaxslar ekanligi aniqlandi. **“Qo‘zg‘aluvchanlik”** ko‘rsatkichining eng past darajada ($M = 4,70$) namoyon bo‘lishi ham ushbu fikrni tasdiqlab, shaxs emotsional tizimida affektiv reaksiyalardan ko‘ra ongli tormozlanish jarayonlari ustunligini ko‘rsatadi.

T. Elers metodikalari bo‘yicha olingan natijalar o‘zaro qiyoslanganda, **“Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi”** ($M = 26,46$) ko‘rsatkichining yetarli darajada yuqoriligi respondentlarning maqsadga yo‘naltirilganligi va kasbiy natijadorlikka bo‘lgan proaktiv intilishini ifodalaydi. Shu bilan birga, **“Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi”** ($M = 14,63$; $\sigma = 3,37$) o‘rtacha-barqaror darajada qayd etilib, guruh ichida past dispersiyaga ega ekanligi aniqlandi. Bu holat xizmatchilarda yutuqqa intilish bilan bir qatorda, xizmat vazifalarini bajarishda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik, tanqid va salbiy baholanishdan himoyalashga qaratilgan institutsional ehtiyotkorlik xulq-atvori ham muayyan tizimli muvozanatda shakllanganini anglatadi.

Shubert metodikasi bo‘yicha **“Tavakkalchilikka tayyorlik”** ($M = 9,78$) ko‘rsatkichining o‘rtacha darajada bo‘lishi, biroq standart og‘ishning keskin darajada yuqoriligi ($\sigma = 11,61$) tadqiqotning eng muhim ilmiy natijalaridan biridir. Bu yuqori dispersiya tanlanma ichida o‘zaro keskin farq qiluvchi ikki qutb — **“riskka haddan tashqari tayyor”** (proaktiv-ekstremal) hamda **“tavakkaldan mutlaqo qochuvchi”** (himoyaviy-ehtiyotkor) guruhlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu qonuniyat xizmatchilarning noaniqlik va risk vaziyatlarida turlicha operativ-taktik strategiyalarni tanlashidan dalolat beradi.

Barcha metodikalarning barcha shkalalari bo‘yicha normal taqsimot gipotezasi rad etildi ($p \leq 0,01$) va noparametrik qonuniyatlar tasdiqlandi. Ayniqsa, **Ijtimoiy yetuklik–onglilik** ($Z = 4,084$), **Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi** ($Z = 3,261$), **Tavakkalchilikka tayyorlik** ($Z = 3,143$) va **Mustaqillik–tobelik** ($Z = 3,096$) shkalalaridagi yuqori Z-qiyamatlar harbiy xizmatchilar shaxsiyatining bir xil, unifikatsiyalashgan qolipda shakllanmasligini ko‘rsatadi. Bu holat subyektlarning shaxsiy sifatleri, motivatsiyasi va riskka tayyorligi ularning individual hayotiy tajribasi, xizmat muddati, lavozim xususiyatlari hamda kasbiy ijtimoiylashuvi ta‘sirida ko‘p variantli (differensial) tarzda transformatsiyaga uchrashini isbotlaydi.

Olingan empirik-statistik natijalar Jamoat xavfsizligi universiteti va sohaviy akademiyalarda **“Professional kadrlar seleksiyasining raqamli tizimi”** hamda *****“Kiberpsixologik va situatsion-taktik simulyatorlar”****ni yaratishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi zarur. Ayniqsa, yuqori individual dispersiyaga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar (tavakkalchilikka tayyorlik va qaror qabul qilish motivatsiyasi) bo‘yicha xizmatchilarni lavozimlarga tayinlashda ularning differensial-psixologik portretini inobatga olish xizmat samaradorligini oshirish va favqulodda vaziyatlarda tizimli xatoliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Капустина А.Н. Многофакторная личностная методика Р. Кеттелла. – Санкт-Петербург: Речь, 2001. – 112 с.
2. Элерс Т. Опросники для оценки мотивации достижения успеха и мотивации избегания неудач // Практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности / под ред. Г.С. Никифорова. – Санкт-Петербург: Речь, 2003. – С. 132–136.
3. Шуберт Ю. Методика диагностики степени готовности к риску // Психология руководства и управления: методы практической диагностики / сост. В.А. Розанова. – Москва: Бизнес-школа «Интел-Синтез», 1999. – С. 84–89.
4. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – Санкт-Петербург: Питер, 2011. – 512 с.
5. Ильин Е.П. Психология риска. – Санкт-Петербург: Питер, 2012. – 288 с.
6. Маклаков А.Г. Профессиональный психологический отбор персонала. Теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 480 с.